

“O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMINING MODERN BOSQICHI: O‘ZBEKISTONDA XUSUSIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI”

Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo‘nalishi I - bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimining dastlabki va hozirgi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekistonda xususiy oliy ta’lim muassasalarining paydo bo‘lishi, ularning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni va rivojlanish sur‘atlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xususiy oliy ta’lim muassasalari davlat universitetlari bilan raqobatbardoshligi, jamoatchilikda mavjud bo‘lgan “xususiy universitetlar yopilib ketadi” degan fikrning asoslari va bu savollarga yechimlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim tizimi, davlat, xususiy, universitet, raqobat, integratsiya, sifat.*

Аннотация: *В данной статье анализируются начальные и современные этапы развития системы образования Узбекистана. В частности, рассматривается возникновение частных высших учебных заведений в Узбекистане, их роль в Центрально-Азиатском регионе и темпы развития. Также рассматривается конкурентоспособность частных высших учебных заведений с государственными вузами, основа мнения о том, что «частные вузы закроются» в обществе, и предлагаются пути решения этих вопросов.*

Ключевые слова: *Система образования, государственный, частный, университет, конкуренция, интеграция, качество.*

Abstract: *This article analyzes the initial and current stages of development of the education system of Uzbekistan. In particular, the emergence of private higher education institutions in Uzbekistan, their role in the Central Asian region and the pace of development are considered. Also, the competitiveness of private higher education institutions with state universities, the basis of the opinion that “private universities will close” in society, and solutions to these questions are proposed.*

Keywords: *Education system, state, private, university, competition, integration, quality.*

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar va modernizatsiya jarayonlari boshlandi. Xususan, davlat tomonidan ta’lim sohasiga e’tibor qaratilib, yangi shakllar, jumladan xususiy oliy ta’lim muassasalari faoliyati uchun imkoniyatlar yaratildi. Ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. Ma’lumimgizkim, 1991-yilda istiqlool mash’ali yonganidan so‘ng, O‘zbekiston ta’lim tizimida tub islohotlar boshlangan. Sovet davridan qolgan markazlashgan, davlat nazorati ostidagi ta’lim tizimi o‘rniga, milliy xususiyatlarga va zamonaviy xalqaro standartlarga mos keladigan, erkin va samarali ta’lim tizimini yaratish vazifasi qo‘yildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim sohasida mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish, o'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchilar malakasini oshirish va infratuzilmani yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. O'zbek tilida ta'lim berish tizimi kengaytirildi, milliy ta'lim konsepsiyalari ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. Maqolada ta'lim tizimining avvalgi va hozirgi holati solishtiriladi, shuningdek xususiy OTMLar haqidagi jamoatchilik fikrlari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM


Mustaqillik davrida O'zbekiston ta'lim tizimi asosan davlat universitetlari va institutlari asosida shakllangan edi. Sovet davridan qolgan an'anaviy tizim davlat nazorati ostida bo'lib, ta'lim sifati va imkoniyatlari cheklangan edi. 1990-yillardan boshlab O'zbekiston ta'lim tizimida yangi yo'nalishlar — xususiy ta'lim muassasalari, xorijiy hamkorlik, oliy ta'limda kredit-modul tizimi joriy etildi. Xususiy universitetlar va kollejlarda o'qilishi ta'limda raqobat muhitini yaratishga, sifatni oshirishga yordam berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi demokratik tamoyillar asosida, xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanmoqda. Davlat tomonidan ta'lim sohasiga yillik byudjet ajratilishi oshirildi, ta'lim sifati va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Shuningdek, yoshlar bandligini ta'minlash va zamonaviy kasb-hunarlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy yutuqlari sifatida milliy ta'lim konsepsiyasining yaratilishi, xorijiy tillarni keng o'rgatish, ilmiy-tadqiqot ishlarining faollashuvi va ta'lim sohasida innovatsiyalarni joriy etish ko'rsatib o'tiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi milliy va xalqaro talablar darajasida takomillashmoqda, o'quv dasturlari, professor-o'qituvchilar malakasi va infratuzilma yaxshilandi. Shu bilan birga, ta'lim tizimida sifatni ta'minlash va undan keyingi rivojlanish uchun yangi muammolar va vazifalar ham mavjud.

Tan olib aytish kerakki, O'zbekistonda xususiy oliy ta'lim muassasalari O'rta Osiyo davlatlari kesimida hisoblaganda nisbatan kech paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida, masalan, Qozog'iston va Qirg'izistonda xususiy universitetlar 1990-yillardan boshlab faoliyat yuritib boshlagan. O'zbekiston esa bu yo'lga 2000-yillardan so'ng kirib keldi. Birinchi xususiy oliy ta'lim muassasasi sifatida 1992-yilda tashkil etilgan "Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti" misol bo'la oladi. Bugungi kunda O'zbekistonda xususiy universitetlar soni oshib, turli sohalarda ta'lim beradi.

(1-rasm)



Yuqoridagi grafikdan guvohi bo'lganingizdek, mamlakat poytaxti Toshkent shahrida jami hisobda 42 ta xususiy OTM, Buxoro viloyatida 6 ta, Andijon viloyatida 2 ta hamda viloyatlar kesimidagi filiallar esa 35 tani tashkil etadi. Boshqa viloyatlarda Farg'ona, Urganch va Jizzax 12 ta bilan bandlikni saqlab turibdi.

Mamlakatdagi Xususiy OTMlar – tanlangan namunalar

- TEAM University (Toshkent) – 2020 yilda tashkil etilgan, birinchi xususiy “entrepreneurial” universitet.
- Zarmed University – 2022 yilda Buxoroda tashkil etilgan, Biomedikal, Dori-darmon, Dasturchilik fakultetlariga ega, Samarqand filialiga ham ega.
- WIUT (Westminster International University in Tashkent) – 2002 yildan beri faol, xalqaro akkreditatsiyaga ega, iqtisodiyot, huquq, texnologiya bo'yicha yirik markaz
- Turin Polytechnic University in Tashkent (TPPU) – 2009 yil, Italiya bilan sheriklikda, muhandislik va texnika yo'nalishlari.
- Management Development Institute of Singapore in Tashkent (MDIST) – 2007 yildan institut shaklida faol – menejment va biznes yo'nalishi.
- Ajou University Tashkent – 2020 yilda tashkil etilgan, Janubiy Koreya bilan hamkorlikda muhandislik, farmatsevtika yo'nalishlari.
- Sharda University Uzbekistan – 2019 yildan faol, Andijonda joylashgan, Hindiston universitetining O'zbekiston filialidir.

Mamlakatda 2018-yildan beri jami 67 ta Xususiy OTM rasmiy ro'yxatdan o'tdi. Markaziy Toshkent shahrida 42 ta umumiy OTM mavjud bo'lib MDIST, Ajou, WIUT, Turin P. va Sharda kabi filiallari ham faoliyat yuritadi.

Mamlakat ta'lim tizimida xususiy va davlat universitetlari faoliyat boshlagan ekan, tabiiyki ular orasida raqobat muhiti shakllanishi turgan gap. Xususiy universitetlar ta'lim sifatini oshirish, yangi o'quv dasturlarini joriy qilish va talabalar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Davlat universitetlari bilan bir qatorda xususiy universitetlar ham ko'paydi. Bu esa o'z-o'zidan raqobatni kuchaytirdi. Ya'ni, har bir universitet ko'proq talabalarni jalb qilish, yaxshi o'qituvchilarni ishga olish, zamonaviy sharoitlar yaratishga harakat qilmoqda.

Bunday raqobatning asosiy sabablari quyidagilar:

- Oliy ta'limga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Har yili minglab yoshlar universitetga kirishni xohlaydi.
- Xususiy universitetlarga ruxsat berilgani sababli yangi muassasalar ochildi.
- O'zbekistonda ko'plab xorijiy universitetlar filiallari ochilmoqda. Bu ham sifatli ta'limga talabni kuchaytirdi.
- Hukumat ta'lim sohasini isloh qilmoqda va xususiy sektorni ham qo'llab-quvvatlamqda.

Endi davlat va xususiy universitetlar bir-biri bilan emas, balki sifatli ta'lim berishda "kim yaxshiroq" degan bellashuvda. Bu esa, albatta, talabalar uchun foydali. Har kim o'ziga mos, zamonaviy bilim bera oladigan universitetni tanlash imkoniga ega bo'lmoqda.

Shuningdek, so‘nggi yillarda davlat va xususiy universitetlar orasida hamkorlik ham kuchaymoqda. Ba‘zi dasturlar birgalikda amalga oshirilmoqda, xalqaro akkreditatsiyalar olinmoqda, xorijiy ta‘lim tizimlari o‘rganilmoqda. Bu esa umumiy ta‘lim sifatining oshishiga yordam bermoqda.

Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor deganlaridek, xususiy universitetlarning ko‘pchiligi moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladi, shu sababli ba‘zi xususiy OTMLar faoliyatini davom ettira olmaydi. Bu esa jamoatchilikda “xususiy OTMLar yopilib ketadi, diplomlari o‘tmaydi” degan tushunchani yuzaga keltirdi. Biroq, davlat va xususiy OTMLar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, sifat nazoratini mustahkamlash, akkreditatsiya tizimini takomillashtirish orqali ushbu muammolarni hal qilish mumkin.

Aholining xususiy universitetlarga nisbatan ishonchsizligi – hozirda O‘zbekistonda juda dolzarb masalalardan biri. Haqiqatan ham, ko‘pchilik ota-onalar va talabgorlar xususiy universitetlarga kirishga ikkilanadi: “diplomi tan olinmaydi”, “universitet ertaga yopilib qolishi mumkin”, “o‘qituvchilari yaxshi emas” degan xavotirlar bor. Bu ishonchsizlikni yo‘qotish va xususiy ta‘limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun bir nechta muhim ishlarni qilish kerak.

Xususiy universitetlarga bo‘lgan ishonchsizlikni kamaytirish uchun takliflar:

- **Rasmiy akkreditatsiyani kuchaytirish** - Xususiy universitetlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan litsenziya olibgina qolmasdan, ta‘lim dasturlarini ham rasmiy akkreditatsiyadan o‘tkazishi kerak. Bu ularning diplomlari davlat tomonidan tan olinishini kafolatlaydi.

- **Diplomlarning tan olinishi haqida ochiq axborot berish** - Har bir xususiy universitet o‘zining diplomlari qayerlarda tan olinishi, qanday akkreditatsiyalarga ega ekani haqida rasmiy va tushunarli ma‘lumotlarni e‘lon qilib borishi kerak. Bu orqali xalqda shubha kamayadi.

- **Nazoratni kuchaytirish** - Hukumat xususiy universitetlar faoliyatini doimiy kuzatib borishi, sifatli ishlayotganlarini o‘z vaqtida ogohlantirishi yoki yopishi kerak. Shunda jiddiy, sifatli ta‘lim berayotgan universitetlar nufuz qozonadi.

- **Xalqaro hamkorliklarni oshirish** - Agar xususiy universitet xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda ishlasa (masalan, qo‘shma diplom berilsa), bu avtomatik ravishda ishonchni oshiradi. “Bu yerda o‘qisang, chet el diplomiga ham ega bo‘lasan” degan tamoyil ishlaydi.

- **Reyting tizimini joriy qilish** - Davlat har yili xususiy va davlat universitetlarini reyting asosida baholasa, eng yaxshi xususiy universitetlar ajralib turadi. Bu ham tanlovda ishonchni oshiradi.

- **Tashviqot ishlari** - Xususiy universitetlar aholiga o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tushuntirishi kerak – bitiruvchilarning muvaffaqiyatli ishlari, o‘qituvchilarning malakasi, xalqaro hamkorlar haqida videolar, intervyular, ijtimoiy tarmoqlarda faol chiqishlar qilish kerak.

XULOSA:

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda tub o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, ta'limga bo'lgan talabning ortishi, xususiy sektor uchun ochilgan imkoniyatlar hamda xorijiy universitetlar filiallarining kirib kelishi natijasida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat keskin kuchaymoqda. Bu raqobat nafaqat talabalarning soni uchun, balki sifatli ta'lim, malakali kadrlar, xalqaro dasturlar va mehnat bozorida talabgir bo'lish uchun kechmoqda.

Raqobatning kuchayishi ijobiy holat bo'lib, u sifatli ta'limga undaydi. Biroq, ayni paytda aholining xususiy universitetlarga nisbatan ishonchsizligi, diplomlarning tan olinishi bo'yicha xavotirlar mavjud. Bu holat ta'limda teng raqobat va sog'lom rivojlanishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu sababli, xususiy oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini ochiq, shaffof va sifatli tashkil etishi, davlat esa bu jarayonni qat'iy nazorat qilib, yuksak standartlarga moslashish uchun muhit yaratishi zarur. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi integratsiya – ya'ni hamkorlik, tajriba almashinuvi va qo'shma loyihalar – ta'lim sifatining yuksalishiga xizmat qiladi. Ya'ni davlat va xususiy universitetlar o'rtasidagi raqobat – bu tahdid emas, balki imkoniyatdir. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanish uchun barcha tomonlar mas'uliyat bilan yondashishi, eng muhimi esa, talaba – ya'ni kelajak egasi – sifatli ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi kerak. Raqobatli, zamonaviy va ishonchli ta'lim tizimi esa O'zbekistonning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2020-yil, Ta'lim islohotlari bo'yicha yig'ilishdan nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. Oliy ta'lim sohasida islohotlar. — Toshkent, 2023.
3. Karimov A., Islomova M. Oliy ta'limda xususiy universitetlarning roli. — Toshkent, 2021.
4. "Central Asian Education Review". Xususiy ta'lim markaziy Osiyoda. — Almaty, 2022.
5. Rahimov B. O'zbekiston ta'lim tizimining modernizatsiyasi. — Toshkent, 2020.
6. UNESCO Reports on Higher Education in Central Asia, 2023.